

UDK: 619:636.2:591.111

BUZOQLARDA GEMATOLOGIK TEKSHIRISH NATIJALARI

Eshburiyev B.M. - v.f.d., professor

Abdumalikova M.A. - mustaqil tadqiqotchi

Sulaymonov M.A. - (PhD), v.f.b.f.d, katta o'qituvchi

Norqobilov R.B. - talaba

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Mikroelementozlar natijasida kelib chiqadigan ko'plab kasalliklar qatorida buzoqlar D gipovitaminozi eng ko'p uchrashi, chorvachilik bilan shug'ullanuvchi barcha xo'jaliklarda katta iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi barchaga ma'lum. Ayniqsa, Xorazm viloyatidagi chorvachilik fermer xo'jaliklarida parvarishlanayotgan buzoqlarda gipovitaminoz D ni oldini olish va davolashga ko'plab e'tibor qaratilgan.

Аннотация: Среди множества заболеваний, вызываемых микроэлементозами, всем известно, что гиповитаминоз D у телят является наиболее распространенным, вызывая большие экономические проблемы на всех животноводческих фермах. В частности, большое внимание уделяется профилактике и лечению гиповитаминоза D у телят, находящихся на содержании на животноводческих фермах Хорезмской области.

Annotation: Among the many diseases caused by microelementoses, everyone knows that hypovitaminosis D in calves is the most common, causing major economic problems on all livestock farms. In particular, much attention is paid to the prevention and treatment of hypovitaminosis D in calves kept on livestock farms in the Khorezm region.

Kalit so'zlar: qon ko'rsatkichlari, gipovitaminoz D, gemoglobin, eritrotsitlar, ishqoriy zahira, umumiy oqsil, mikroelementozlar, oziqlantirish.

Ключевые слова: показатели крови, гиповитаминоз D, гемоглобин, эритроциты, щелочной резерв, общий белок, микроэлементозы, питание.

Keywords: blood parameters, vitamin D deficiency, hemoglobin, red blood cells, alkaline reserve, total protein, trace elements, nutrition.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son farmonlari ijrosini ta'minlash maqsadida, joylarda veterinariya xizmatini rivojlantirish konsepsiya (strategiya) loyihasini yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqish uchun mas'ul ishchi guruhlar shakllantirilib, ular oldiga bajariladigan ishlar yuzasidan vazifalar belgilab berildi. Shunga muvofiq ravishda, respublikamizning barcha viloyatlarida veterinariya sohasini isloh qilish, davlat veterinariya xizmatini yanada yaxshilashni, sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, respublikada epizootik barqarorlikni ta'minlash bilan birgalikda chorva mollari orasida ko'p tarqalgan yuqumsiz kasalliklarni oldini olish va davolash, respublikamiz aholisini sifati kafolatlangan chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlash, veterinariya


sohasiga investitsiyalarni jalb qilish, ichki bozorni mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish borasida muayan ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezident tomonidan 30.01.2025 yildagi "Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlanishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-15-son Farmoni hamda "Chorvachilik va parrandachilikni qo'llab-quvvatlash, sohada yuqori qo'shilgan qiymat yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-34-son qaroriga asosan chorva mollarini o'tlatish va pichan o'rish yaylovlarning turiga, shuningdek yaylovning muayan uchastkasida o'tlatiladigan chorva mollarining turi va soniga qarab tasdiqlanadigan yaylovlardan foydalanish normalari hamda muddatlariga rioya etgan holda amalga oshiriladi. Bu esa o'z novbatida, chorva hayvonlarini to'g'ri oziqlantirish, ular ratsionini to'yimli oziqalar bilan ta'minlashni tashkil qilishni talab qiladi. Veterinariya sohasidagi islohotlarni davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi prezidentining 25.12.2024-yil № PQ 455 sonli qarorida O'zbekiston Respublikasining "2025 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi qonunida "Chorvachilik va tuyachilik mahsulotlarini qayta ishlash sohasida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari va tadbirkorlik subyektlari ijtimoiy soliqdan ozod qilinadi" deb belgilab qo'yildi.

Chorvachilik sohasiga ajratilgan imkoniyatlarga tayangan holda, ilmiy izlanishlarimizni ekologik holati murakkab bo'lgan Xorazm viloyatidagi chorvachilik fermer xo'jaliklarida davom ettirib, makro-va mikroelementlar yetishmasligi hamda moddalar almashinuvining buzilishi natijasida buzoqlarda kuzatiladigan gipovitaminoz D ning oldini olish va davolash maqsadida dispanserlash tadbirlarini o'tkazdik. Hududdagi suv, tuproq tarkibida makro-va mikroelementlarning kamligi yetishtirilayotgan yem-xashaklarda chorva hayvonlari organizmi uchun zarur bo'lgan mineral moddalar va vitaminlarning meyoriy ko'rsatkichlardan past bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu esa hayvonlarda, asosan o'sish yoshidagi 1-6 oygacha bo'lgan buzoqlar organizmida kalsiy, fosfor nisbatining buzilishiga va A, D vitaminlar yetishmasligiga, qand-oqsil nisbatining o'zgarishiga va gipovitaminoz D ning rivojlanishiga omil yaratadi.

Xorazm viloyatidagi fermer xo'jaliklarida dispanserlash tadbirlarini o'tkazish davomida 1-3 oylik buzoqlardan qon namunalari olinib, buzoqlar D gipovitaminozida qondagi o'zgarishlarni o'rganish maqsadida gemotologik tekshirishlardan o'tkazildi, ular qonidagi gemoglobin konsentratsiyasi, eritrotsitlar soni, glyukoza, qon tarkibidagi umumiy oqsil va ishqoriy zahira miqdori aniqlandi (1 rasm).

Dispanserlash jarayonida olingan buzoqlar qonidagi eritrotsitlar soni tekshirilganda, 1 oylik buzoqlarda eritrotsitlar soni o'rtacha 5 mln/mkl; 2 oylik buzoqlarda eritrotsitlar soni 5,3 mln/mkl; 3 oylik buzoqlarda eritrotsitlar soni 5,1 mln/mkl.ni (meyor 5,0-7,5 mln/mkl) tashkil etishi qayd etildi (1-jadval). Eritrotsitlar sonining kamayishi buzoqlar ratsionida oqsil kam miqdorda bo'lganda kuzatiladi, bu esa suyak ko'migining eritroblast faoliyatini pasayishiga olib keladi hamda buzoqlarda gavda skeletining to'laqonli rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, og'ir holatlarda suyak ko'migida patologik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi(leykoz, o'smalar).



1- rasm. Buzoqlardan olingan qon namunalarini tekshirish jarayoni.

Buzoqlar qonidagi gemoglobin konsentratsiyasini tekshirish jarayonida 1 oylik buzoqlarda gemoglobin miqdori o'rtacha 86 g/l; 2 oylik buzoqlarda 91 g/l va 3 oylik buzoqlarda 96 g/l ni (meyor 99 -129 g/l) tashkil etishi aniqlandi (1-jadval). Bu ko'rsatkichlar meyoriy ko'rsatkichlardan ancha kam bo'lib, buzoqlarda modda almashinuvi buzilishi va alimentar anemiya rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Buzoqlar qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori tekshirilganda 1 oylik buzoqlar qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori o'rtacha 70 g/l.ni; 2 oylik buzoqlarda esa 72 g/l.ni va 3 oylik buzoqlarda 70 g/l. ni (meyor 72 -86 g/l) tashkil etdi (1-jadval). Qon zardobidagi umumiy oqsil miqdorining meyoriy ko'rsatkichlarga nisbatan kamayishi bevosita buzoqlarda D gipovitaminozi rivojlanishi uchun sharoit yaratilishini bildiradi.

Buzoqlar qonidagi glyukozaning miqdori 1 oylik buzoqlarda o'rtacha 2,6 mmol/l; 2 oylik buzoqlarda o'rtacha 2,65 mmol/l va 3 oylik buzoqlarda o'rtacha 2.85 mmol/l (meyor 2,22-3,33 mmol/l) tashkil etdi. (1-jadval). Tekshirishlar natijasiga ko'ra buzoqlar qonidagi glyukoza miqdori fiziologik meyorda ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, buzoqlarning qon zardobidagi ishqoriy zahira miqdori tekshirildi. Tekshirishlar natijalariga ko'ra, 1 oylik buzoqlarda qon zardobidagi ishqoriy zahira miqdori o'rtacha 45 hajm % SO_2 ni tashkil etgan bo'lsa, 2 oylik buzoqlarda o'rtacha 48 hajm % SO_2 ni va 3 oylik buzoqlarda o'rtacha 47 hajm % SO_2 ni tashkil etdi. (1-jadval). Buzoqlar qon zardobidagi ishqoriy zahira meyordan pastligi kislota- ishqor muvozanatining kislotali tomonga siljiganligini ko'rsatadi. Bu esa atsidozning rivojlanishini, buzoqlar organizmida mineral metabolizmining buzilishini bildiradi.

Tajribadagi sigirlar qonining gemotologik ko'rsatkichlari (n=10.)

1-jadval.

Hudud	Hayvonlar yoshi	Eritrositlar mln/ml	Gemoglobin g/l	Umumiy oqsil, g/l	Glyukoza, mol/l	Ishqoriy zahira, hajm % CO ₂
Xorazim viloyati	1 oylik buzoq	5,0	86	70	2,6	45
	2 oylik buzoq	5,1	91	72	2,65	48
	3 oylik buzoq	5,3	96	70	2,85	47

Xulosa. Tadqiqotlar davomida o'tkazilagan dispanserlash xulosalariga ko'ra, Xorazm viloyatidagi chorcachilik xo'jaliklaridagi buzoqlarda modda almashinuvi buzilishlari kuzatilib, buzoqlar qonidagi gemoglobin konsentratsiyasini pastligi (96 g/l), umumiy oqsilning kamayishi (70 g/l), qon zardobidagi ishqoriy zahira miqdori kamayishi (47 hajm % SO₂) qayd etildi. Bu ko'rsatkichlarning fiziologik meyardan pastligi buzoqlarda gipovitamin D ning rivojlanishi uchun qulay sharoitni yaratadi.

Xo'jaliklarda buzoqlarni sog'lom o'sishi va ulardagi mineral moddalar almashinuvi va gipovitamin D ning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, dispanserlash hamda qonning gematologik tekshirish natijalariga tayanib, fermer xo'jaliklari rahbarlari, veterinariya vrachlariga buzoqlarni boqish, saqlash, oziqlantirishga oid kerakli ko'rsatmalar berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30-yanvardagi "Chorcachilik va parrandachilikni qo'llab-quvvatlash, sohada yuqori qo'shilgan qiymat yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-34-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30-yanvardagi "Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-15-son Farmoni.
3. Eshburiyev B.M., Abdumalikova M.Q., Sulaymonov M.A. – Buzoqlar D gipovitaminosi (raxit). Veterinariya Meditsinasi jurnali, maxsus son. "Veterinariya fanlari doktori, professor N.SH.Davlatov tavalludining 75 yilligiga bag'ishlangan "Zamonaviy xirurgiyaning dolzarb muammolari, ularning yechimlari va istiqboldagi vazifalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2024-yil 15-iyun, 97-99 betlar.
4. Abdumalikova M. Q., Sulaymonov M. A. Gipovitamin D ning chorcachilikdagi iqtisodiy zararini oldini olish. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami, Veterinariya meditsinasi jurnali 2023 yil, 6 -oktabr.
5. Sulaymonov Maruf Etiology and symptoms of disorders of vitamin and mineral metabolism in cows in the conditions of the aral sea region Asian journal of Multidimensional Research 5.May 2019.
6. Abdumajitov V. B., Eshburiyev B. M., Eshburiyev S. B., & Sulaymonov M. A. (2021). Etiopathogenesis and symptoms of hypocalcemia in productive cows. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 115-120.

7. Sulaymonov M. A., Norboev K. N., Alikulov Z. I., & Abdumalikova M. K. Productive Cows Nutrition in the Prevention of Infertility Monocalcium Phosphate, Introvit a+ WS and Ovaritropin the Influence of Drugs. International Journal on Integrated Education, 4(2), 130-132.

8. Сулаймонов М., Абдумаликова М., & Сидиков Б. (2021). Влияние Introvit A+Ws И Монокальцийфосфата На Профилактику Витаминно-Минерального Дефицита Бесплодия У Коров. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES, 2(5), 171-173. <https://doi.org/10.47494/cajmns.v2i5.313>.